



UDK: UDK: 616.33-013:6144.2:008.13

THE ECONOMIC CONTEXT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN DIGITAL STRATEGIC MANAGEMENT

Muradov Botir Khayat

*Tashkent State Technical University named after Islam Karimov Faculty of Oil
and gas, independent researcher (DSc) at the department of "Industrial
economics and management".*

shaklaser@gmail.com

ORCID: 0000-0001-8138-0073

Annotation. The article analyzes the significance, components, and implementation mechanisms of the digital strategic management concept in industrial enterprises. In the context of digital transformation, opportunities for increasing enterprise efficiency are revealed through the integration of information and communication technologies, programming fundamentals, artificial intelligence, and data analysis tools into management systems. Additionally, the relevance and practical approaches of digital strategic management in ensuring the competitiveness of enterprises are examined.

Key words: Digital strategic management, industrial enterprises, digital transformation, artificial intelligence, data analysis, efficiency, competitiveness

RAQAMLI STRATEGIK BOSHQARUVDA SANOAT KORXONALARING IQTISODIY KONTEKSTIDA.

Muradov Botir Xayat

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Neft va gaz fakulteti.

“Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti” kafedrasi (DSc) mustaqil izlanuvchisi

shaklaser@gmail.com



ORCID: 0000-0001-8138-0073

Annotatsiya: Maqolada sanoat korxonalarida raqamli strategik boshqaruv konsepsiyasining ahamiyati, tarkibiy qismlari va joriy etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya sharoitida boshqaruv tizimlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dasturlash asoslari, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili vositalarini integratsiya qilish orqali korxonalar samaradorligini oshirish imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, korxonalarning raqobatbardoshligini ta'minlashda raqamli strategik boshqaruvning dolzarbligi va amaliy yondashuvlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli strategik boshqaruv, sanoat korxonalari, raqamli transformatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili, samaradorlik, raqobatbardoshlik

ЦИФРОВОЕ СТРАТЕГИЧЕСКОЕ УПРАВЛЕНИЕ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭКОНОМИЧЕСКОМ КОНТЕКСТЕ

Мурадов Ботир Хаят

*Ташкентского государственного технического университета имени Ислама
Каримова. Факультет нефти и газа. независимый соискатель (DSc)
кафедры "Промышленная экономика и менеджмент".*

shaklaser@gmail.com

ORCID: 0000-0001-8138-0073

Аннотация. В статье анализируются значение, компоненты и механизмы реализации концепции цифрового стратегического управления на промышленных предприятиях. В контексте цифровой трансформации раскрываются возможности повышения эффективности предприятия за счет



интеграции информационно-коммуникационных технологий, основ программирования, искусственного интеллекта и инструментов анализа данных в системы управления. Кроме того, рассматриваются актуальность и практические подходы цифрового стратегического управления в обеспечении конкурентоспособности предприятий.


Ключевые слова: цифровое стратегическое управление, промышленные предприятия, цифровая трансформация, искусственный интеллект, анализ данных, эффективность, конкурентоспособность.

So‘nggi yillarda dunyo iqtisodiyotida yuz berayotgan raqamli o‘zgarishlar sanoat korxonalariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy boshqaruv yondashuvlari raqamli iqtisodiyot talablariga javob bermay qolmoqda. Shu bois, strategik boshqaruvni zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish raqamli strategik boshqaruv tizimlarini shakllantirish – bugungi kun sanoat korxonalari uchun dolzarb muammoga aylangan. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish davrida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini saqlab qolish, operatsion samaradorlikni oshirish hamda innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish uchun raqamli strategik boshqaruv yondashuvini joriy etishga majbur. Endilikda oddiy texnologik modernizatsiya yetarli emas – raqamli transformatsiyani chuqur strategik rejalashtirish, uni ishlab chiqarish va boshqaruv tizimlariga uyg‘unlashtirish zarur. Raqamli strategik boshqaruv – tushuncha va mohiyati. Raqamli strategik boshqaruv mohiyati – bu raqamli texnologiyalar asosida korxona faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va boshqarish orqali uzoq muddatli maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan boshqaruv yondashuvidir. U quyidagi asosiy omillarga tayanadi: Ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish (data-driven decision making). Sun’iy intellektdan foydalanishda raqamli platformalardan foydalangan holda resurslarni boshqarish. Innovatsion texnologiyalarni strategik rejalarga uyg‘unlashtirish. Raqamli strategik boshqaruvda



sanaot konhonasining va tashkilotning uzoq muddatli maqsad va vazifalariga erishish maqsadida raqamli texnologiyalarni (sun'iy intellekt, IoT, Big Data, bulutli hisoblash, avtomatlashtirish, ma'lumotlar tahlili, AKT) boshqaruvifga asoslanadi, ishlab chiqarish va resurslarni taqsimlash tizimlariga strategik asosda integratsiyalash jarayonidir. Iqtisodiy tomonlama asosan boshqaruvdan farqli ravishda quyidagi xususiyatlarga ega: Harakatlarning ma'lumotlarga asoslanganligi (data-driven decision making). Iqtisodiyotda moslashuvchanlik va tezkor strategik javob hamda innovatsion texnologiyalarni faol joriy qilish dolzarb hisoblanadi va boshqaruvning raqamli platformalar orqali amalga oshirilishi kerakligi aniqlanmoqda.

Sanoat korxonalarida raqamli boshqaruvning dolzarbligi ishlab chiqarishda murakkab texnologik jarayonlarga ega bo'lib, ularning samarali boshqaruvi uchun real vaqt ma'lumotlari, prognozlash algoritmlari, avtomatlashtirilgan tizimlar va nazorat mexanizmlariga ehtiyoj ortib bormoqda. Sanaot korxonaning uzoq muddatli raqamli maqsadlari belgilab olinadi va texnologik yechimlar, ustuvor loyihalar va KPI ko'rsatkichlari aniqlanadik bular: 1. Loyihani joriy etish Sun'iy intellekt, bulutli hisoblash, avtomatlashtirilgan tizimlar, raqamli platformalar bosqichma-bosqich integratsiya qilinadi. Misol ilmiy ishimizda inobatga olingan izlanishlarimizdan Ma'lumotlar manbalarida keltirilgan quyida keltirilgan 1 Rasmda respublikamizda 2025-yilda 49 813,36 mlrd. so'mlik moliyaviy xizmatlar ko'rsatilgan. 2. Monitoring va rivojlantirish Yangi tizimlarning samaradorligi o'lchanadi, doimiy takomillashtirish mexanizmlari yo'lga qo'yiladi.





1 Rasm. Respublikamizda 2025-yilda 49 813,36 mlrd. so‘mlik moliyaviy xizmatlar ko‘rsatilgan.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda sanoat korxonaning kelajakka oid maqsadlari raqamli muhitda aniqlanadi, har bir bo‘lim uchun raqamli yo‘nalishlar belgilanadi. Raqamli strategik boshqaruv bosqichlariga bizning fikrimizcha bular: 1. Tahlil bosqichi – mavjud tizimlar, texnologiyalar, raqamli imkoniyatlar baholanadi. 2. Raqamli strategiyani shakllantirish – raqamlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilanadi. 3. Loyihalashtirish va joriy etish – raqamli loyihalar tanlanib, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. 4. Iqtisodiyotni rivojlantirishda monitoring va rivojlantirish – samaradorlik o‘lchanib, tizimlar takomillashtiriladi misol qilinib amaliy misollardan: 1. Aqlli zavod kontsepsiyasi “Smart factory” va “IKEA” sanoat tarmoqlarida IoT, sensorli tizimlar va sun‘iy intellekt orqali to‘liq avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va kontsepsiyasi asosida ishlab chiqarishni raqamli boshqarish o‘zaro IoT orqali bog‘langan. 2. ERP (Enterprise Resource Planning) – tizimlari orqali ishlab chiqarish, logistika, moliya va inson resurslarini yagona raqamli platforma orqali boshqarish. 3. Xitoy dunyodagi eng katta avtomobil bozori va dunyodagi eng yirik avtomobil ishlab chiqaruvchisi bo‘lib “BYD” sanoatida Predictive Maintenance – uskunalarning holatini sun‘iy intellekt yordamida bashorat qilish va texnik xizmatni oldindan rejalashtirish. 4. “SpaceX” va “Tesla” kompaniyalari hamdala zavodlari sun‘iy intellekt asosida texnik xizmat ko‘rsatishni rejalashtirish (predictive maintenance) – avariylarni oldindan aniqlash ishlatiladi. Natijalar va tahlillarda asosan yirik korxonalarning natijalarini hisobga oldik va sanoat korxonalarida raqamli strategik boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali erishilgan asosiy natijalar quyidagicha umumlashtiriladi: 1. Ishlab chiqarish samaradorligi oshdi. Raqamli texnologiyalar (AI, IoT, avtomatlashtirilgan monitoring) joriy etilishi tufayli: Ishlab chiqarish jarayonlari aniq rejalashtirila boshlandi; Texnologik uzilishlar soni kamaydi; Mehnat unumdorligi va mahsulot chiqarish hajmi ortdi. 2. Qaror qabul qilish sifati yaxshilandi. Ma’lumotlarga



asoslangan qaror qabul qilish (data-driven decision making) orqali: Boshqaruvchilarning qarorlari yanada tezkor va asosli bo'ldi; Risklarni oldindan bashorat qilish imkoniyati paydo bo'ldi; Tahlil asosida rejalashtirish va strategik yondashuv kuchaydi. 3. Bozor raqobatbardoshligi oshadi hamda raqamli mahsulotlar va xizmatlar joriy etilishi sanoat korxonasining asosan yangi bozor segmentlariga chiqishiga asoslanadi. Iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida mijozlar ehtiyojiga tez moslashishiga; Mahsulot va xizmatlar assortimentini kengaytirishiga zamin yaratdi va sanoat korxonaning texnologik va axborot infratuzilmasi barqarorlashdi. Bizning fikrimizcha har bir sanoat korxonalarning raqamli rivojlanishi bo'yicha aniq strategik reja bo'lishi kerak hamda mahalliy va xorijiy mutaxassislar jalb qilinib, zamonaviy texnologiyalar asosida avtomatlashtirish joriy etilishi lozim. Raqamli strategik boshqaruv bugungi sanoat korxonalari uchun nafaqat texnologik rivojlanishning ajralmas tarkibiy qismi, balki raqobatbardoshlikni ta'minlash, samaradorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning muhim omiliga aylangan. Xalqaro tajribalarni o'rganish va integratsiya qilish: Dunyodagi ilg'or texnologik yondashuvlarni tahlil qilish, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda qo'shma loyihalar va texnologik transfer mexanizmlarini rivojlantirish zarur va yourtimizning sanoatining barqarorligi, innovatsion rivoji va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi yangi bosqichga ko'tariladi. Raqamli transformatsiyaning sanoat korxonalariga ta'sirida quyidagi o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda: Ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtiriladi, inson omilining xatolari kamayadi. Resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi, energiya tejiladi. Raqobatbardoshlik kuchayadi, yangi bozorlar ochiladi. Innovatsion mahsulotlar paydo bo'ladi, mijozlar bilan aloqalar raqamli kanallar orqali mustahkamlanadi. Misol qilinib bizning fikrimizcha joriy etish mexanizmlari bular; raqamli strategik boshqaruvni joriy etish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: diagnostika bosqichi – mavjud boshqaruv tizimini tahlil qilish va raqamli yetuklik darajasini baholash. Strategiyaning ishlab chiqish – raqamli



texnologiyalarni joriy etish yoʻnalishlarini belgilash. Texnologik integratsiya – AKT, SI va maʼlumot tahlili tizimlarini amaliyotga kiritish. Monitoring va takomillashtirish – natijalarni oʻlchash va jarayonni doimiy optimallashtirish. Amaliy yondashuvlar va istiqbollarda bular bugungi kunda raqamli boshqaruvni muvaffaqiyatli joriy etayotgan korxonalar quyidagi yondashuvlardan foydalanmoqda: Bulutli hisoblash texnologiyalari orqali masofaviy boshqaruv. Sunʼiy intellektli tahlil tizimlari orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish. Raqamli “tvins” texnologiyasi orqali real jarayonlarni modellashtirish. Kelajakda sanoat korxonalari uchun toʻliq raqamli ekotizim yaratish, barcha boʻgʻinlarni yagona boshqaruv platformasiga integratsiya qilish muhim yoʻnalish boʻlib qoladi.

Xulosa. Raqamli strategik boshqaruv sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion rivojlanishni taʼminlashning eng muhim omillaridan biridir. Uning muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun texnologik tayyorgarlik, xodimlarning raqamli madaniyati va rahbariyatning strategik yondashuvi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha boʻlgan davrda Oʻzbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasi” toʻgʻrisidagi 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4574008>
2. Максудова Ш.Я. Развитие и размещение машиностроительного комплекса Узбекской ССР с учетом экологических факторов [Текст]: автореф. дис. ...канд. экон. наук: 08.00.04; №176. Академия наук Узбекской ССР Совет по изучению производительных сил (Ташкент). - Ташкент, 1991. – с. <http://www.dslib.net/economika-regionov/razvitie-i-razmewenie-mashinostroitelno-kompleksa-uzbekskoj-ssr-s-uchetom.html>



3. Шарипов К.А. Стратегия сравнительного анализа развития промышленного предприятия. ICFNDS 21: Труды 5-й Международной конференции по будущим сетям и распределенным системам, Декабрь 2021 г. <https://doi.org/10.1145/3508072.3508122>

4. Murodov B.X., Sharipov K.A. Ko'mir sanoati korxonalarini rivojlantirishning zamonaviy xolati va ularga tasir etuvchi omillar. 2022/4/12. том 1. IIIIV-shuba. Страницы 292-295. Andijon.wtwinrar And MII, 2022. 6576.

5. Murodov B.X., Sharipov K.A. Ko'mir sanoati korxonalarini rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarining samaradordik ko'rsatkichlari va ularni baholash. 2022/4/22. proceedings of the conference II-international scientific and scientific-technical conference «problems and prospects of innovative technique and technology in agri-food chain» Part 2. Страницы 554.

6. Murodov B.X., Sharipov K.A. Makro va mikroiqtisodiy sektor ekologiyani rivojlantirishga hissa qo'shadigan korxonalarni iqtisodiy tashkil etishning asosiy mexanizmlaridan biridir. "Роль инновационных методов и технологий в обеспечении экологической устойчивости" международный научный и научнотехнический собрание. Том-1. Страница 161. 2022/9/11. Ташкент.

7. Алимукхамедова Н.Б. Детерминанты развития бизнеса: важность микрофинансирования для стартапов. Международная конференция по бизнесу и технологиям, 2021 г.

8. Мурадов Б.Х. Технические направления в промышленных аспектах в экономической грамотности для повышения потенциала молодежи в узбекистане для научных исследований. Electron ilmiy jurnal: Research and education, 4(3), 69-76, issn: 2181-3191, 2025. <https://zenodo.org/records/1516442>.

9. Мурадов Б.Х. Зарубежный опыт конкурентоспособность региональной экономики и перспективы национальных топливно-энергетических секторов-потребителей в угольной промышленности.



International scientific journal "Interpretation and researches" 2025.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14601115>.

Мурадов Б.Х. Еқилғи-энергетика тармоқлари саноати корхоналарининг рақамлаштириш ва ташкилий-иқтисодий механизмларини ривожланишининг такомиллаштириш «саноат 5» даражасида. International conference on developments in education sciencesand humanities, canada. 2022 у.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6913315>